



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida individual yondashuvning o'rni va ijtimoiy-pedagogik zaruriyati

Mannopova Nilufar Ziyovuddin qizi

Qo'qon Davlat Universiteti Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lim) yo'nalishi 1-bosqich magistranti.

Email. nilufarmannopova03@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida individual yondashuvning mazmuni, ahamiyati, pedagogik-psixologik jihatlari va uning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati tahlil qilinadi. Shuningdek, individual yondashuv asosida bolaning qobiliyatlari, o'ziga xos xususiyatlari, qiziqishlari, rivojlanish darajasi va ijtimoiy moslashuvi hisobga olingan holda ta'lim jarayonini tashkil etish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Individual yondashuv, pedagogik-psixologik jihatlar, qobiliyat, o'ziga xos xususiyatlar, rivojlanish darajasi, ijtimoiy moslashuv, pedagogik jarayon, pedagogik vazifa.

Abstract. This article analyzes the content, significance, pedagogical and psychological aspects, and the socio-pedagogical necessity of an individual approach in preschool educational institutions. It also highlights the organization of the educational process based on an individual approach, taking into account the child's abilities, unique characteristics, interests, level of development, and social adaptation.

Keywords: individual approach, pedagogical and psychological aspects, ability, individual characteristics, level of development, social adaptation, pedagogical process, pedagogical task.

Аннотация. В данной статье анализируются содержание, значение, педагогические и психологические аспекты, а также социально-педагогическая необходимость индивидуального подхода в дошкольных образовательных организациях. Также освещаются вопросы организации образовательного процесса на основе индивидуального подхода с учётом способностей ребёнка, его индивидуальных особенностей, интересов, уровня развития и социальной адаптации.

Ключевые слова: индивидуальный подход, педагогические и психологические аспекты, способность, индивидуальные особенности, уровень развития, социальная адаптация, педагогический процесс, педагогическая задача.

KIRISH (INTRODUCTION).

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Bu bosqichda bolaning shaxs sifatida shakllanishi, uning intellektual, ijtimoiy va emotsional rivoji uchun mustahkam poydevor yaratiladi. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartida asosiy prinsiplarida

tarbiyalanuvchining intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi¹ asosiy prinsiplardan biridir. Shu sababli ta’lim jarayonida har bir bolaga individual yondashuvni ta’minlash dolzarb masalalardan biridir.

Individual yondashuv – bu har bir bolaning yosh, psixologik, ijtimoiy va intellektual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishdir. Butun XX asr va hozirgi asr bizdan shaxsga yo’naltirilgan ta’limga o’tishni taqozo qilmoqda. Uning asosida esa ma’naviy, muloqot va kognitiv (yaratuvchan, tanqidiy, tizimli va nostandart fikrlash, keng dunyoqarash, hissiy idrok, katta va o’zgaruvchan ma’lumotlar bazasi bilan ishlay olish qobiliyati va hokazo) sifatleri doimiy o’zgarib borayotgan muhitda shaxsning rivojlanishi yotadi². Shunday ekan, **shaxsni har tomonlama rivojlantirish** bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri va har bir bolaning imkoniyatlarini to’liq ro’yobga chiqarishdir. Bunga esa faqatgina shaxsga yo’naltirilgan va individual yondashuv asosida erishish mumkin. Maktabgacha ta’limda ushbu yondashuvni qo’llash bolaning rivojlanishidagi tafovutlarni kamaytiradi, uning qobiliyatini qo’llab-quvvatlaydi va ta’limga bo’lgan ijobiy munosabatini shakllantiradi.

METODLAR(METHODS).

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida individual yondashuvning ahamiyati hamda ijtimoiy-pedagogik zaruriyati muhim omil sifatida tahlil qilinadi. Bu jarayonda esa pedagogik metodlardan samarali foydalanish bolalarning ijtimoiy, psixologik va intellektual xususiyatlariga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- **Nazariy tahlil metodi** – maktabgacha ta’lim, individual yondashuv va shaxsga yo’naltirilgan ta’limga oid ilmiy-nazariy manbalar o’rganildi.
- **Kuzatish metodi** – maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning faoliyati, xulq-atvori va rivojlanish xususiyatlari bevosita kuzatildi.
- **Suhbat metodi** – tarbiyachilar, ota-onalar va bolalar bilan suhbatlar o’tkazilib, individual yondashuvga doir amaliy fikrlar va tajribalar o’rganildi.
- **Pedagogik eksperiment metodi** – individual yondashuvning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi.
- **Test sinovlari metodi** – bolalarning bilim, ko’nikma va rivojlanish darajasini aniqlash uchun test topshiriqlari qo’llanildi.
- **Matematik-statistik tahlil metodi** – olingan natijalar son jihatdan qayta ishlanib, ularning ishonchligi va samaradorligi tahlil qilindi.

NATIJALAR (RESULTS).

Tadqiqot jarayonida suhbat, pedagogik eksperiment, test sinovlari va matematik-statistik tahlil metodlari orqali olingan ma’lumotlar shuni ko’rsatdiki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida individual yondashuvni tizimli qo’llash bolalarning rivojlanish ko’rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Eksperiment davomida bolalarga berilgan topshiriqlar ularning yosh, psixologik tayyorgarlik va individual qobiliyatlariga

¹ Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to’g’risidagi Vazirlar Mahkamasining 2020.02.22 802-son qarori

² Khushnazarova Mamura Nodirovna, “Theoretical and methodological basis of training of management personnel in the process of higher pedagogical education.” International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.04 (2022): 171-177.

moslashtirildi. Natijada bolalarning faol ishtiroki ortgani, topshiriqlarni bajarishga bo‘lgan qiziqishi kuchaygani va mustaqil harakatlar soni ko‘paygani kuzatildi.

Test sinovlari orqali olingan dastlabki va yakuniy ko‘rsatkichlar taqqoslanganda, tajriba guruhidagi bolalarda nutq rivoji, diqqatni jamlash, eslab qolish va topshiriqlarni tushunish darajasi nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq bo‘ldi. Suhbat metodi orqali tarbiyachilar va ota-onalardan olingan ma‘lumotlar individual yondashuv bolaning ruhiy-emotsional holatiga ijobiy ta‘sir qilishini ko‘rsatdi. Xususan, bolalarda o‘ziga ishonchning ortishi, muloqotga kirishish faolligining kuchayishi va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarining shakllanishi qayd etildi. Matematik-statistik tahlil natijalari tajriba guruhida ijobiy dinamikani tasdiqladi. Bu esa individual yondashuvning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham samarali ekanligini ko‘rsatdi. Umuman olganda, olingan natijalar individual yondashuv maktabgacha ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil ekanini isbotladi.

MUHOKAMALAR (DISCUSSION)

Olingan natijalar maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida individual yondashuvni qo‘llash zarurligini yana bir bor tasdiqladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanish sur‘ati, qiziqish doirasi, emotsional barqarorligi va bilish faoliyati jihatidan bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Individual yondashuvni amalga oshirida pedagogning psixologik bilimlari ham muhim o‘rin tutib, bolalarning o‘ziga xos psixologik xususiyatlarini hisobga olmasdan samarali ta‘lim berish qiyin. Chunki pedagogning psixologik bilimlari talab darajasida bo‘lmasa, bolalar bilan samarali ishlash qiyinlashadi³.

Pedagogik eksperiment shuni ko‘rsatdiki, bolaning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan ta‘lim-tarbiya jarayoni uning faolligini oshiradi hamda bilimni mustahkam o‘zlashtirishga yordam beradi. Individual yondashuv bolaga mos topshiriq tanlash, uni bosqichma-bosqich murakkablashtirish va ijobiy rag‘batlantirish orqali amalga oshirilganda, bola o‘z imkoniyatini to‘liq namoyon eta boshlaydi. Shunday qilib, individual yondashuv bolani nafaqat bilim oluvchi subyekt sifatida, balki o‘ziga xos qobiliyat, ehtiyoj va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo‘lgan shaxs sifatida ko‘rishga asoslanadi. Bu esa zamonaviy maktabgacha ta‘limning insonparvar, demokratik va shaxsga yo‘naltirilgan mazmunini ifodalaydi.

XULOSA (CONCLUSION).

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida individual yondashuvning qo‘llanilishi ta‘lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Bolada o‘ziga ishonch, mustaqillik, faollik va ijodiy fikrlash kabi sifatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, katta yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlash rivojlantiradi bu esa bolalarning o‘z bilimlarini, tajriba va qobiliyatlarini ongli ravishda qo‘llashga qodir bo‘lishi hamda muammolarni mustaqil hal etish va ijodiy yechimlar topish ko‘nikmasi sifatida shakllanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, individual yondashuv asosida tashkil etilgan ta‘lim jarayoni bolalarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasini oshiradi, ularning emotsional holatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib jamoaga moslashuvini yengillashtiradi.

³ Бодалев А.А. Психология личности и профессиональная компетентность педагога при недостаточном индивидуальном подходе в дошкольном образовании. М.: Изд-во Моск. ун-та, 1988. – 138 с.

Demak, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida individual yondashuvni keng joriy etish, tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirish va ota-ona bilan hamkorlikni kuchaytirish bugungi kunning dolzarb pedagogik vazifalaridan biridir. Individual yondashuv nafaqat ta’lim sifati, balki bolaning har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun ham zarur hisoblanadi.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risidagi Vazirlar Mahkamasining 2020.02.22 802-son qarori.

2. Khushnazarova Mamura Nodirovna,. “Theoretical and methodological basis of training of management personnel in the process of higher pedagogical education.” International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277- 3630 Impact factor: 7.429 11.04 (2022): 171-177.

3. Бодалев А.А. Психология личности и профессиональная компетентность педагога при недостаточном индивидуальном подходе в дошкольном образовании. М.: Изд-во Моск. ун-та, 1988. – 138 с.

4. Tursunova M. “Maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning psixologik-pedagogik omillari”. “Psixologiya va ta’lim” jurnali, 2021, №7. – 678 b.

5. F.R. Qodirova, Sh.Q. Toshpo‘latova, N.M. Qayumova, M.N. A’zamova “Maktabgacha pedagogika” © «Tafakkur» nashriyoti, 2019. 266 b.